

**Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitish va o'rgatishning lingvodidaktik imkoniyatlari**

***G.Bekimbetova***

*Nukus davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fanlari falsafa doktori*

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning qoraqalpoq tili darslarida o'quvchilarning o'qish, bilish (gapirish, o'qish, nutqni tinglap tushinish, yozuv) o'rgatish ko'nikmalarini o'rgatish mashg'ulotlardagi asosiy ish turlarini ifoda etadi. Bugungi kunda bu to'rt yo'nalishdagi ta'lim tadbirlari o'z fikrlarini og'zaki va yozma bayon qilish hamda axborot olish madaniyatini, o'qish madaniyatini egallashga qaray boradi, o'sha sababli bu yo'nalishlar bo'yicha erishiladigan natijalarning ta'lim jarayonidagi, o'quvchilar hayotidagi ahamiyati yanada ortadi.

Biz tadqiqot ishimizda asosan quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini ko'rsatib berish;
- ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;
- ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitish modelini ishlab chiqish;
- ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitish texnologiyasini takomillashtirishga qaratdik.

Tadqiqotning predmeti sifatida ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitish mazmuni, shakl, metod va vositalarilari tanlab olindi.

Biz dissertatsiyamizda OTM filolog talabalari o'quv rejalari va pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi kurs tinglovchilarining qoraqalpoq tilini o'qitish modullari soatlarining didaktik imkoniyatlar o'rganildi.

Tadqiqot ishimizda umumta'lim maktablaridagi ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitish bo'yicha darsliklar, davlat ta'lim standartlari asosida tayyorlangan tematik rejalar, Qoraqalpoq davlat universiteti filolog-talabalarining "Qoraqalpoq tili va adabiyotini o'qitish metodikasi" bo'yicha yo'naltirilgan mavzularga namuna sifatida dasturlar, Nukus davlat pedagogika instituti qoraqalpoq tili va adabiyoti mutaxassisligi talabalarining o'quv rejalari va u yerda o'qitiladigan "Ona tili va adabiyotini o'qitish metodikasi" moduli (3-kurs, V semestr), "Ona tilini o'qitish metodikasi" moduli (3-kurs, VI semestr), "Qoraqalpoq tilini boshqa tillarda o'qitiladigan maktablarda o'qitish" moduli (4-kurs, VII semestr), "O'zga tilli sinflarda qoraqalpoq tilini o'qitish" moduli (4-kurs, VII semestr), Navoiy davlat pedagogika instituti 6011500 – Qoraqalpoq tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv rejalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Qoraqalpoq tili (Davlat tili) modullari (36 soatlik) bilan tanishib chiqdik.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv rejada ko'rsatilgan, 2-kurs talabalari uchun "O'zga tilli sinflarda qoraqalpoq tilini o'qitish" 90 soat bo'lib, umumiy soatning 2,8% ini, 3-kurs talabalari uchun "Qoraqalpoq tilini boshqa tillarda o'qitiladigan maktablarda o'qitish" fani 70 soat bo'lib 2,2% ini, 4-kurs talabalari uchun "Qoraqalpoq tilini boshqa tillarda o'qitiladigan maktablarda o'qitish" faniga 50 soat ajratilgan bo'lib, umumiy soatning 1,4% ini tashkil etadi. (2-jadvalga qarang).

*2-jadval*


<b>2-, 3-, 4-kurslar uchun Modul mavzusi</b>	<b>Umumi y soat soni</b>	<b>O'quv rejadagi jami soat</b>	<b>%</b>
O'zga tilli sinflarda qoraqalpoq tilini o'qitish	3150	90	2,8%
O'zga tilli klasslarda qoraqalpoq tilini oqitish			
Qoraqalpoq tilini boshqa tillarda o'qitiladigan maktablarda o'qitish	3120	70	2,2%

Qoraqalpoq tilini boshqa tillarda o'qitiladigan maktablarda o'qitish	3660	50	1,4 %
Jami	9930	210	2,1%
O'rtacha umumiy soat soni	3310	70	2,1%

1-kursdan 4-kursgacha o'qitiladigan moduldagi soatlar soni jami 9630 soatning 2,1% ini tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich o'zga tilli sinflarda qoraqalpoq tilini o'qitishda o'quvchilarning bilim darajasini rivojlantirish uchun qoniqarsizligini isbotlaydi. Bu yerda ta'lim boshqa tilida olib boriladigan guruhlariga qoraqalpoq tilini o'qitish bo'yicha ajratilgan soat ko'rsatkichini quyidagi 2-jadvalda ta'kidlab o'tilgan.

Dissertatsiyada oliy talim muassasasi filolog-talabalarning "O'zge tilli klasslarda qoraqalpoq tilini oqituv" moduli bilan tanishib chiqildi. Bu modul doirasida qoraqalpoq tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari sohasida talabalarning lingvodidaktik kompetensiyasini shakllantirishdan iborat reproduktiv mahsulot tayyorlandi. Masalan, "O'zge tilli klasslarda qoraqalpoq tilini oqituv" modullarida qoraqalpoq tilini o'qitishning lingvodidaktik tamoyillari o'rganildi. Modulda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitish va o'rgatishning lingvodidaktik imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi va 2.1-rasmda ko'rsatib o'tilgan tamoyillar asosida lingvodidaktik kompetentligini rivojlantirishda oid mexanizmlar, milliy qadriyatlar asosida xalqning turmush tarzini o'rgatuvchi interaktiv metodlar, ijtimoiy va kasbiy rivojlanish bo'yicha reproduktiv mahsulot tayyorlandi bu esa o'z fani sohasida malakali bo'lishga yordam beradi.

*(2.1-rasm)*



Dissertatsiyada ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitishda talabalarga lingvodidaktik modellarni modifikatsiyalash zarurligi ko'rsatilgan. Shuningdek, talabalarda lingvodidaktikaga oid qiyinchiliklarni qanday bartaraf etish mumkinligi to'g'risida gapiriladi, bu masalalarni nazariy va kognitiv yondashuv ko'rinishda taqdim etish zarurligi aniqlandi.

Dissertatsiyamizda Qoraqalpog'iston Respublikasi Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Qoraqalpoq tili o'qituvchilarining 36 soatlik uzlukiz kasbiy rivojlantirish kursining ischi o'quv dasturi modulidagi ixtisoslik fanlarning mazmuniga quyidagi (2.2-jadval) mashq turlari singdirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Bunda kurs tinglovchilariga qoraqalpoq tili fanini o'qitishda bajarish ahamiyatli sanaladi.

Tadqiqotda kurs tinglovchilariga qoraqalpoq tili fanidan dars jarayonida o'quvchilarning nutq faoliyatining ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha metod va

usullar bo'yicha bilim, ko'nikma va tajribalarni shakllantirishga oid mahsulotlar tayyorlandi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarga ta'lim berishda quyidagi yo'nalishlarga qaratildi:

- 1) matn o'qishi orqali og'zaki nutqini o'stirish;
- 2) o'qish, gapirish, tinglap tushinish, yozma nutq turlarini rivojlantirish;
- 3) matn ko'nikmasi va tajribalarni rivojlantirish va baholashga qaratildi.

(2.2-jadval)

<b>Lug'at boyligini oshirish</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- dars davomida muloqotga aloqador so'z va gaplarni o'zlashtirish;</li> <li>- o'quvchilarning o'z aro muloqot qilishga aloqador lug'atini boyitish;</li> <li>- yangi mavzuga aloqador so'zlarni o'zlashtirish;</li> <li>- ba'zi so'zlarning ona tilidagi tarjimasini eslab qolish;</li> <li>- oddiy diologlarni ishlata olish;</li> </ul>
<b>Grafika va fonetika:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- qoraqalpoq alifbosidagi harflar va ularning talaffuzi bilan yozilishini bilish;</li> <li>- harflarning bosma va yozma shakllarini ajrata olish;</li> <li>- bosh va kichik harflarni to'g'ri, chiroyli qilib yozish;</li> <li>- qoraqalpoq tilidagi ba'zi tovushlarni to'g'ri aytish;</li> <li>- qoraqalpoq tilining o'ziga xos (á, ú, ı, ğ, q, ń, w, h, ó) tovush va harflarini to'g'ri qo'llay bilish;</li> <li>- bir qancha so'zdan iborat bo'lgan gaplarni o'rtacha tezlikda ayta olish;</li> </ul>
<b>Grammatika va yozuv:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- lotin yozuviga asoslangan qoraqalpoq alifbosidagi bosh va kichik (bosma va yozma) harflarni taniy olish;</li> <li>- kirill yozuvidagi <i>ı</i> va <i>ı</i> harflarining qoraqalpoq lotin yozuvidagi <i>c</i> va <i>ch</i> tamg'alari bilan belgilanishi;</li> <li>- o'zbek lotin yozuvidagi <i>ng</i> harf birikmasining o'rniga qoraqalpoq lotin yozuvidagi <i>ń</i> tamg'asi bilan belgilanishi;</li> </ul>

<b>Fonetika va orfoepiya:</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- faol va passiv ishlatiladigan, yangidan o'rganilgan so'zlarni to'g'ri ayta olish;</li><li>- o'gan, kelar, hozirgi zamon fe'llarini, buyruq, tilak, o'tinichga bog'liq so'zlarni qo'llana olish;</li><li>- ot, olmosh va fe'l so'zlarni I, II, III shaxslarda, birlik va ko'plik sonlarda ishlata olish;</li><li>- urg'uning qoraqalpoq tilida so'zning oxirgi bug'iniga tushishiga e'tibor berish;</li><li>- gaplarni o'rtacha tezlikda, tovush xususiyatiga ko'ra ayta olish;</li></ul>
-------------------------------	--

Bu yerda o'qituvchi grammatik vositalarning ma'nosini to'g'ri aytilishini va yozilishini, ularning so'zlarga qo'shilish tartibini bilishini, fonetika va orfoepiya, grammatika va yozuv, grafika va fonetika, so'z boyligini oshirish komponentlariga e'tibor qaratiladi. Nutq tovushini o'rgatishning birinchi bosqichida tovush ustida ishlansa, ikkinchi bosqichida so'zlarni o'qituvchiga taqlid qilib aytish; ular ishtirokida namuna asosida gaplar (savol-javoblar) hosil qilib aytish; shu so'zlarni qamrab oladigan qandaydir bir mavzuda gaplashish) kabi og'zaki kursga xos mashg'ulotlar bajariladi.

O'qituvchiga ma'lum, nutq faoliyati turlari bo'yicha rivojlanish, kommunikativ qobiliyat darajasi bir xil emas, bir nechta parametr bo'yicha hisobga olinadi. Aytish (gapirish), fikrni og'zaki bayon qilishni o'rgatish, ya'ni o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish nuqtai nazaridan quyidagi parametrlarga ajratganmiz:

- 1) o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri aytishiga, yanada aniqroq gapirishiga erishish, tushunarli bo'lishining ortib borishini ta'minlash;
- 2) gapirish vaqtida tez yodga tushadigan leksik va grammatik vositalar boyligini ketma-ket oshirib borish;
- 3) mustaqil tuziladigan gaplarning sintaktik jihatdan rangbarangligini rejali sur'atda amalga oshirish;
- 4) monologik bayon qilishning og'zaki aytilishiga mos oz-oz murakkablashib

borishi, fikrning ketma-ket aks ettirilishi, shuningdek, sodda gaplarning o'z aro bog'lanish vositalari tarafidan boyib borishini ta'minlash;

5) dialog tarzidagi o'z aro muloqotning qolip gaplar hisobidan boyib, kommunikativ qobiliyat darajisining ortib borish zarur.

Tadqiqotning muhim natijasi - ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda qoraqalpoq tilini o'qitishning umumiy qoidalari malaka oshirish kurslari tinglovchilari va oliy ta'lim talabalarga qoraqalpoq tilini o'qitishga doir mavzularni o'rgatish orqali o'quv faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkinligi haqidagi xulosaga kelamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Рамзаева Т.Г. Языковое образование и его реализация в программе по русскому языку (II - IV классы одиннадцатилетней школы) // Методические основы языкового образования и литературного развития младших школьников: пособие для студентов факультета начального обучения и учителей начальных классов; под общей редакцией профессора Т.Г.Рамзаевой. - СПб.: Специальная литература, 1998. - С.4.

2. Ерназарова М.С. Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактабларнинг 2-синфларида ўзбек тилини ўқитиш методикаси. Диссертация автореферати. 1999-11-бет.

3. Йўлдошев Р. “Ўзбек тили” давлат таълим стандартини жорий этишга доир методик тавсиялар (таълим бoshqa тилларда олиб бориладиган мактаблар учун). - Т.: РТМ, 2002. - Б. 13.

Щерба Л.В. Фонетика французского языка. Изд 7-е.-М: Высшая школа, 1963. -С. 4.

4. Ahmedova G. O'zbek tili darslarida rusiyzabon o'quvchilar nutqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari asosida) Muhammedjonova G.Z. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda rusiyzabon o'quvchilarning o'zbekcha nutqini o'stirish metodikasi (5-9-sinflar misolida): Ped. fan. nom. diss.avtoref. TDPU, – Toshkent: 2003, – 21 b.

5. <http://uza.uz/oz/education/-uvchini-mayib-ilayetgan-k-rinmas-va-samarasiz-milliardlar-14-11-2019>.
6. <https://kun.uz/news/2020/07/18/muhokamalar-markazida-ona-tili-talimidagi-qoy-yogi>. <https://kun.uz/74189092>